



## MA'NAVIY TARBIYA VA UNI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI O'RNI.

**Karimova Shoira Baxtiyarovna**

Qo'qon Davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

**Abduqodirova Go'zalxon G'ofurjon qizi**

Qo'qon Davlat universiteti 2 talaba.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Millatning ma'naviy kamoloti, "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongiga, axloqiy hislarini, uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda 3 - 7 yoshli bolalarga xos xususiyatlar shaxsiy sifatlarini va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi.

**Tayanch so'zlar:** Millatning ma'naviy kamoloti, ma'naviy tarbiya, Davlat talablari, ta'lim-tarbiya, axloqiy normalar, e'tiqodlar, maqsadlar, his-tuyg'ular, xulq-atvor, ma'naviy qarashlar.

**Аннотация:** В данной статье духовное развитие нации, задача и содержание нравственного воспитания детей дошкольного возраста требуют формирования духовного мира ребёнка, воздействия на его сознание и нравственные чувства. В рамках концепции непрерывного духовного воспитания реализация духовного воспитания в системе дошкольного образования предполагает учёт особенностей детей в возрасте 3–7 лет, а также воспитание и развитие их личностных качеств и поведения.

**Ключевые слова:** Духовное совершенствование нации, духовное воспитание, государственные требования, образование и воспитание, нравственные нормы, убеждения, цели, чувства, поведение, духовные взгляды.

**Annotation:** This article states that the spiritual development of the nation, as well as the goals and content of moral education for preschool children, require the formation of a child's spiritual world and influence on their consciousness and moral feelings. Within the framework of the concept of continuous spiritual education, the implementation of spiritual upbringing in the preschool education system presupposes taking into account the characteristics of children aged 3–7, as well as fostering and developing their personal qualities and behavior.

**Keywords:** Spiritual development of the nation, moral education, state requirements, education and upbringing, moral standards, beliefs, goals, feelings, behavior, spiritual outlook.

Buyuk sharq mutafakkurlarining tarbiya masalasidagi qarashlarida tarbiya qancha erta boshlansa shuncha samarali bo'lishi ta'kidlangan. Uzluksiz ta'lim tizimining birinchi

bo‘g‘ini sifatida maktabgacha ta’lim tizimida olib borilgan ma’naviy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda maktabgacha ta’lim tizimini o‘rni beqiyosdir.

Milliy ma’naviyat, avvalo tarixdan boshlanadi. U bir kunda, bir yilda, balki, hatto bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. O‘rta Osiyo xalqlari tarixining ibtidosi asrlar qariga singib ketgan bo‘lib, ular bosib o‘tgan necha ming yillik ma’naviy kamolot pillapoyalarini aniqlash bugun uchun muhim muammodir. Ammo milliy ma’naviyatning tarixi bilan siyosiy, ijtimoiy, hatto madaniy hayot tarixi orasida muhim farqli jihatlar mavjud. Avvalo milliy ma’naviyat tarixi millatning ma’naviy takomili jarayoni bilan bog‘liq. Millatning ma’naviy kamoloti zamonda, ya’ni butun tarixi davomida yuz beradi, ammo u ba’zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba’zan esa ma’lum darajada tanazzulga yuz tutushi ham mumkin.

Shaxs ma’naviyati jamiyatda ijtimoiy hayotda shaxsning baxtli yashashi uchun to‘g‘ri fikrlash, so‘z va amalning birligi, rost so‘zlash, halol mehnat qilish, xush axloqqa ega bo‘lishdan iboratdir. Shaxs ma’naviy darajasi uning kishilik jamiyatning yuksak axloqiy qadriyatlariga qay darajada rioya qilib yashashi bilan belgilanadi. Axloq inson ma’naviyatining muhim mezonlaridan biri bo‘lgani bois:-Shaxs ma’naviyati deganda, avvalambor, uning axloqan barkamolligi, o‘z faoliyatida ma’naviy qadriyatlarga, chunonchi, adolat, go‘zallik va ezgulik g‘oyalariga tayanib ish ko‘rishi nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr oqibatlilik, ma’suliyatlilik, bag‘rikenlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini bolalalardan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish maqsadida 2019-yil 31-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori qabul qilindi. (2-ilovaga qaralsin)

Konsepsiyada ma’naviy tarbiyani dastlab ona qornidan boshlash ko‘rsatilgan. Shu bilan birga qarorda ma’naviy tarbiyani shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkilotining amalga oshiradigan vazifalarga alohida e’tibor qaratilgan. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida maktabgacha ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda 3 - 7 yoshli bolalarga xos xususiyatlar, jumladan:

- o‘z tuyg‘ularini boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi;
- o‘z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko‘nikmalarini yuzaga kelishi;
- shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo‘lishi;
- ijtimoiy motivlar va milliy an‘analarga qiziqishning paydo bo‘lishi, o‘zini namoyon qilishga intilish;
- muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining tug‘ilishi;
- o‘ziga o‘zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma’naviy-axloqiy munosabatning paydo bo‘lishi;
- bola faoliyatining yetakchi turlari - muloqot, o‘yinlar, mashg‘ulotlar;
- nutq va uning asosida ma’naviyat asoslarining rivojlanishi inobatga olinadi.

Konsepsiyada tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan ushbu yoshdagi bolalarga: asosiy faoliyat turlari jarayonida o‘zini o‘zi anglashga o‘rgatish; muloqot, kuzatish va taqlid orqali kattalarning ma’naviy-axloqiy tajribasini o‘zlashtirish; o‘zining va

boshqalarning xulqiga baho berishga o‘rgatish; faoliyat va syujetli-rolli o‘yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash; ma’naviy-axloqiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish; kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish; kattalar, ularning mehnati, kasblar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to‘g‘risida tushunchalar berish; o‘yin, o‘zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish ehtiyojining paydo bo‘lishi orqali ‘harakter sifatlarini shakllantirib borish; bola tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rgatish belgilandi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy tarbiyaning asosi tarbiyalanuvchilarda umuminsoniy va millatga xos ma’naviy, madaniy an’analar, qadriyatlar haqidagi dastlabgi ta’savvurlarni shakllantirishdir. Bu davrda bola qiziqishlarining to‘planishi, qiziquvchanlikni ortishi bilan ‘harakterlanadi.

Inson o‘z xatti-harakatlarini jamiyatning axloqiy talablariga ixtiyoriy ravishda topshirganda, ularning mazmuni va ahamiyatidan xabardor bo‘lsa, axloqiy maqsadlarni qo‘ya olsa va aniq sharoitlarga nisbatan yechimlarni ishlab chiqa olsa, o‘z xatti-harakatlari va boshqalarning harakatlarini mustaqil baholay olsa, shaxsga aylanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsining rivojlanishini hisobga olib, shuni ta’kidlash kerakki, uning shaxsiy rivojlanishi tug‘ilgan paytdan boshlanadi.

Ularning rivojlanishi va maqsadga muvofiq tarbiya jarayonida bola kattalar yordamida jamiyatda qabul qilingan talablar, normalar va xulq-atvor qoidalari bilan tanishadi. Dastlabki bilim olish jarayonida ular tizimli va umumlashtirilgan g‘oyalarni shakllantiradilar. Bilim va g‘oyalar asosida bolada muayyan talab, axloqiy me’yor, sifatga bo‘lgan munosabat rivojlanadi, bu esa egalik va zaruriyatning tashqi motivi paydo bo‘lishini taqozo etadi

Ma’lumki, maktabgacha yosh davri ijtimoiy ta’sirlarga nisbatan sezuvchanlikning ortishi bilan karakterlanadi. Bola bu dunyoga kelib, hamma narsani: muloqot yo‘llari, xatti-harakatlari, munosabatlarini o‘ziga singdiradi, shu maqsadda o‘z kuzatishlari, yempirik xulosalari, kattalarga taqlid qilishlaridan foydalanadi. Va bularni o‘zida sinaydi shularga orqali harakat qilib, u oxir-oqibat inson jamiyatda hayotning asosiy normalarini o‘zlashtirish mumkin.

Ma’naviy fazilatlarini shakllantirishda maktabgacha bo‘lgan yosh eng qulay davr hisoblanadi. Bu davrda bola qiziqishlarining to‘planishi, qiziquvchanlikni ortishi bilan karakterlanadi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan talablar belgilab berildi.

“Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan” talablarda bolalarning beshta asosiy sohalarga bo‘lingan, bular jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish. Davlat talablarining “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasining kichik sohalari bo‘lgan, “Men” konsepsiyasi, Hissiyotlar va ularni boshqarish, Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot, kichik sohalarda 5-6 yoshdagi bolalarning ijtimoiy hissiy rivojlanishi ko‘rsatilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ushbu talablarni e’tiborga olish lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nafaqat bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga, balki bola shaxsini – harakteri, irodasi, qobiliyatlari va qiziqishlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bola shaxsining rivojlanish darajasini ko‘rsatadigan mezonlardan biri. Bolaga ta’lim-tarbiya berish jarayonida shakllanadigan axloqiy normalar, e’tiqodlar, maqsadlar, his-tuyg‘ular, bolaning xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan ma’naviy qarashlar, shuningdek bilimlar, e’tiqodlar va xulq-atvorning uyg‘unligi bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga beriladigan ta’lim-tarbiya ularning oddiy gigiena, madaniy va mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. U tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nafaqat bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga, balki bola shaxsini – ‘harakteri, irodasi, qobiliyatlari va qiziqishlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bola shaxsining rivojlanish darajasini ko‘rsatadigan mezonlardan biri. Bolaga ta’lim-tarbiya berish jarayonida shakllanadigan axloqiy normalar, e’tiqodlar, maqsadlar, his-tuyg‘ular, bolaning xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan ma’naviy qarashlar, shuningdek bilimlar, e’tiqodlar va xulq-atvorning uyg‘unligi bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ma’naviy va estetik tuyg‘ular hamda munosabatlarning hammasi tarbiya ta’sirida endigina rivojlana boshlaydi. Lekin bu kishi shaxsining poydevori bo‘ladi, chunki ‘harakter va axloq belgilari hayotga munosabat ulg‘ayganda emas, balki maktabgacha yoshda shakllanadi.

“Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongiga, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Axloqiy tarbiyani vazifalari asosan quyidagilardir:

1. Bolalarda axloqiy his-tuyg‘ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash
3. Shaxsda axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash
4. Xulqdagi salbiy hislarni barham toptirish

Bu umumiy vazifalar yosh guruhlari bo‘yicha konkretlashtirilgan va o‘quv-tarbiyaviy jarayonning mazmunida o‘z aksini topadi.

#### **Adabiyotlar.**

1. Aliev.A “Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat” T: Akademiya 2007-yil.
2. Qoraboev.U “O‘zbekiston bayramlari” T. 2001-yil.
3. Nosirov O‘. “Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish”. Uslubiy qo‘llanma, T. 2010-yil.
4. Axmedova M.E “Pedagogika nazariyasi va tarixi” T. 2011-yil.
5. “Pedagogika” ensiklopediyasi T.N Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlar ilmiy tadqiqot instituti. T. 2015-yil.
6. Jo‘raev.N “Ma’naviyat-odam va olam xaloskori” T. 2018-yil.